

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan.

2006-yil 18 - 24 - sentabr N:38 (66579)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

SAHIFALARDA

ICHKI
DUNYOINGIZNI
BILASIZMI



4-BETDA

SAMARQAND
OSMONIDA
YULDUZLAR
PORLOQ



4-5-BETDA

O'ZIMIZNING
IRODA



6-BETDA

RAHMAT, BOBOJONI!



Men amakimning qizlari Maftuna bilan 57-sonli bolalar bog'chasiga qatnar edim. Bog'chamizda Zulxumor, Gulnora, Roziya kabi tarbiyachi opalarimiz bizni juda yaxshi ko'rar edilar. Biz bilan qiziqarli o'yinlar o'ynab, mashg'ulotlar o'tkazardilar. Kim yaxshi bola bo'lsa, o'shanga Prezident bobomiz sovg'a yuboradilar, der edilar. Mana, qadrdon bog'chamiz bilan xayrlashib, maktabga chiqdik. Yurtimiz mustaqilligi arafasida maktabimizda ham birinchi qo'ng'iroq bayrami bo'lib

o'tdi. Nihoyat, biz orzu qilgan kun ham yetib keldi. Prezident bobomiz bizga yuborgan sovg'alarini maktabimiz bo'lim mudirlari Sanobar opa Xudoyberganova va Elvira opa Bogdasarova tarqatishdi.

Maktabimiz direktori Svetlana Sergeyevna bizni sovg'a bilan tabriklab, bizga katta ishonch bildirdilar. Menga ko'k, Maftunaga esa qizil sumka berishdi. Sumkada

kitob, daftar, rangli qalamlar, plastilin, qo'yingchi, maktabda bizga nima kerak bo'lsa, barisi bor ekan. Men mashinani yaxshi ko'rishimni bilgandek, mashina rasmi tushirilgan kundalik daftar solishni ham unutmaganlar. Sovg'amiz uchun Prezident bobojonimizga barcha birinchi sinf o'quvchilari nomidan minnatdorchilik bildiramiz. Va nomimizdan quyidagilarni aytamiz:

Aziz Prezident bobomiz! Bizga yuborgan sovg'alaringizni oldik. Bunday g'amxo'rlikingiz uchun sizga mingdan-ming rahmat. Siz bizni qanchalik yaxshi ko'rsangiz, biz ham sizni shunchalik yaxshi ko'ramiz. Hamisha yaxshi o'qishga, bizga bildirgan ishonchingizni oqlashga so'z beramiz.



Alisher NARGITOV,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi
49-maktabning 1-sinf
o'quvchisi.

Izhor

O'ZBEKISTON TINCHLIGIGA KO'Z TEGMASIN

Mening ismim To'maris. Men Moskva shahrida yashayman. Bu yil ikkinchi sinfga bordim. Natalya buvijonim men bilan ko'p mashg'ulotlar o'tkazadilar. Buvim asli gimnastika bo'yicha sport ustasi. Shuning uchun ular meni ham sport maktabiga berganlar. Menga sport bilan shug'ullanish juda yoqadi. Moskvada bizning qarindoshlarimiz juda ham ko'p. Lekin Urganch shahrida ham mening dadamning oyijonlari va dadajonlari yashashadi. Men ularni juda ham sog'inaman. Qadrdonim «Tong yulduzi», men sen orqali buvijon-u bobojonlarimni va butun O'zbekiston xalqini Mustaqillik bayrami bilan chin dildan qutlayman. O'zbekiston quyoshi hamisha porlab tursin. Tinchligiga ko'z tegmasin!



TO'MARIS, Rossiya, Moskva shahri,
Chertanova ko'chasi, 78-uy.

Assalomu alaykum, O'zbekistonda yashaydigan aziz do'stlarim. Yaqinda televizorda O'zbekistonda o'tkazilgan Mustaqillik bayramini namoyish etishdi. Yurtingizning go'zalligi, rang-barangligi

bolajonlarning shodligi menga juda ham yoqdi. Ayniqsa, kechqurun osmonga otilgan salyutlarning ko'pligini aytmaymizmi? Bayram qanday yaxshi. Televizorda ko'rib, men Belorussiyada tanishgan o'zbekistonlik do'stim Ruslan yodimga tushib, sizlarga xat yozdim. Sentabrning 22-kunida bizning Bobruysk shahrida ham katta xalqaro bayram bo'lib o'tadi. Bu dehqonlarning bayrami bo'lib, «Dojinki» deb nomlanadi. Bayramda chet ellardan mehmonlar, artistlar, hatto O'zbekistondan ham jurnalistlar kelisharkan. Shahrimiz qaytadan ta'mir qilindi. Butun shahar boshqacha tus oldi. Berezina daryosi bo'yida mehmonlar uchun yangi mehmonxona qurildi. Vokzallar ham qayta ta'mirlandi. Men istardimki, O'zbekistondan bu festivalga bolalar ham kelishsa. Biz ular bilan tanishsak, yurtimizda faqat bayram bo'lsa-yu, bir qo'shiq kuylasak..

ARTYOM,
Belorus Respublikasi,
Mogilyov viloyati, Bobruysk shahri.



Mustaqilligimiz hamda Bilimlar kuni arafasida Respublikamizdagi ko'plab maktab muassasalari to'liq hamda joriy ta'mirdan chiqarildi, ko'plab bilim maskanlari qayta qurib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Bizning Zangiota tumanidagi 40-sonli o'rta umumta'lim maktabimiz ham shular jumlasidandir. Ilgarigi tor, qorong'u, hech qanday talablarga javob bera olmaydigan laboratoriya, sinfxo-

nalari, eski maktab sahnasi o'rnida keng va shi- nam yorug' laboratoriya va sahna sinfxo- nalari, kompyuter xonasi qo'yilgan. Bunday ajoyib maktab biz o'quvchilarga yangi o'quv yiliga munosib sovg'a bo'ldi. d e s a m adashmagan bo'lardim. O'quv-

chilarning barchasi har bir fan yo'nalishi asosidagi ilmiy qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Bu albatta dars jarayonini yanada qiziqarli, munozarali o'tishiga sharoit yaratib beradi.

«Fayz-xolding» kompaniyasi maktabning keng, yorug' va shinam kutubxonasini kitob javonlari hamda stol, o'rindiqlar bilan ta'minladi. 40-o'rta umumta'lim maktabi ilk bor, sport anjomlari bilan ta'minlangan bo'lib, mashg'ulotlar zalida qizlar va o'g'il bolalar uchun kiyinish xonasi alohida qilindi. Maktab hovlisidan sport maydoni o'rin egalladi.

Yaratilgan bunday qulaylikdan ilhomlangan o'quvchilar yanada yaxshiroq o'qib maktab obro'sini oshirishi aniq albatta.

Bir maktabdan qo'sh maktub

Bahodir RAHMONOV,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 40-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

SAVOBNING UMRI BOQIQ

Bundan salkam 7-8 yil oldin Zangiota tumanidagi 38-maktab hovlisiga mevali daraxtlar bilan birga mevali, mevasiz o'simliklar ekib, katta savob ish qilgan yoshi ulug' otaxonlarimiz M.Mirzajonov, U.Otaxo'jayev hamda Yomin Odilovlar endi oramizda yo'q bo'lishida ularning nonlati qilgan ishni qalbimizda bir o'ringa muvirlangan. Ularning bu yaxshi fazilatlarini bizlarga domo jorat bo'ladi. «Yaxshidan bog' qoladi, yomonidan dog'», degan naqni barchamiz bilaniz. Kuni kecha otaxonlarimiz barpo'rgan bog'dagi mevalardan terib, ularning farzandlarini yo'dalik. Otaxonlarning yaxshi fazilatlarini hadida gapirib, xotirladik. Mezbonlar maktab mahmuriyatining ajoyib sovg'alari bilan taqdirlanishdi. So'ngra, savobta'lim o'quvchilarni maktab bog'idagi mevalardan terib, qariyalarga, nogironlarga hamda kam ta'minlangan oilalarga ulashdilar. Mahalla ahlida bunday savob ishni amalga oshirgan ustozlarni duo qilishdi.

Bunday ishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda maktab o'quvchilari darsdan so'ng bog'dagi mevalarni terishdi, daraxtlarga shakl berib, oqlashdi, sug'orishdi, ularning qurigan shoxlarini qirqishdi. O'quvchilar tergan mevalardan tayyorlangan sharbat ertangi kungi o'quvchilarning tushligidan joy egalladi.

Hurmatli «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Men sizlarga qayta-qayta maktub yo'llayman. Xatlarimda yozgan she'rlarim ham bor. Lekin afsuski, biror marta ham she'rim chop etilmadi. Sizlarga yoqmayaptimi? Yoki biror maslahat bering.

Ozoda JUMABOYEVA,
*Xorazm viloyati,
Xazorasp tumanidagi
1-o'rta maktab o'quvchisi.*

Tahririyatdan: Aziz qizimiz Ozoda! Biz o'quvchilar yuborayotgan maktublar bilan tanishib, eng ma'qullarini albatta gazetada e'lon qilamiz. Sizing she'rlaringiz bilan ham tanishganmiz. To'g'risini aytgach, avvalo she'r yozish qonun-qoidasini adabiyot fani o'qituvchingizdan so'rab bilib oling. Yozgan mashqlaringizni ham ularga ko'rsating. Qofiya, vazn degan tushunchalardan yiroqligingiz mashqlaringizda ko'rinib turibdi. Iloji bo'lsa, «Yosh qalamkashlar to'garagi»ga qatnang. Ana o'shanda mukammalroq she'r bitasiz.

Aziz bolajonlar, o'zbekistonlik yosh kinoijodkorlar yaratayotgan filmlardan biri «Sevgi fazosi»ni maroq bilan tomosha qilgan bo'lsangiz kerakmi? Unda yaralgan Yodgor Mirzajonovning «Nozli» soundtrack qo'shig'i barchaga yod bo'lib ketgani shubhasiz. Ana shu qo'shiq matnini sizning tengdoshingiz yozganligini eshitib, qoyil qoldim.

Tahririyatimizga o'z she'r namunlarini olib kelgan bu yigit, ya'ni Ozod Qurbonov bilan siz ham yaqindan tanishishingiz mumkin. Ozod adabiyot fanini juda yaxshi ko'rganligi bois ham Respublika miqyosida o'tkazilgan olimpiadada faxrli o'rinni olib, O'zMUning o'zbek filologiyasi fakultetiga imtihonsiz qabul qilindi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Amrullo Islomovdan o'rganganlari unga ko'p asqotyapti. Chunki Ozod nafaqat o'zi uchun Ona, Vatan, Muhabbat, Hayot haqida qalam tebratadi, balki «Nihol» mukofotining sovrindorlari Yodgor Mirzajonov hamda qoraqalpog'istonlik Maqset O'temurotovga qo'shiqlar yozib turadi. Undan tashqari, yaqinda O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi jamg'armasi tomonidan tashkillashtirilgan «Kelajak ovozi» ko'rik tanlovining badiiy ijod yo'nalishi bo'yicha uchinchi o'ringa loyiq deb topildi. Ozodning tinimsiz o'z ustida ishlashi birin-ketin o'z samaralarini namoyish etmoqda. 2005-yilning dekabr oyida «Yoshlar ovozi» ko'rsatuvi orqali ijodiy faoliyati yoritilgan bo'lsa, shu yilning yanvar oyida «Sarhisob» ko'rsatuvida «Yil qahramoni» bo'lib ishtirok etdi. Ozod «O'qigan, izlangan odam qachondir albatta yuzaga chiqarkan», deydi.

Muxbirimiz.

XORAZMDA SHUNDAY MASKAN BOR

Xorazm viloyatidagi aniq va gumanitar fanlarga yo'naltirilgan 6-son umumiy o'rta ta'lim maktab-internatida 290 nafar o'quvchi tahsil olishadi. Ularga 25 nafar malakali o'qituvchi va 11 nafar tarbiyachi ta'lim-tarbiya berishmoqda. Bu yerda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning barchasi yangi, zamonaviy usullardan foydalangan holda ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari va tarqatma materiallar, test savollari yordamida olib borilmoqda. Ayniqsa, haftaning har kuni jadval asosida o'tkaziladigan uch soatlik mutolaa dars mashg'ulotlarida o'quvchilarimiz faol. Chunki bu mashg'ulotlarda o'tilgan mavzular malakali tarbiyachilar tomonidan puxta tushintirib boriladi. Maktab-internatda fanlar bo'yicha to'garaklar mavjud. Bu yerda kompyuterlashtirilgan xonalar, laboratoriya, monitoring xonalari, ma'naviyat va ma'rifat zali, kutubxona, tibbiy xona hamda shinam oshxona barcha-barchasi o'quvchilar ixtiyorida. Fanlar bo'yicha esa uchta uslub birlashma tashkil qilingan.



Faxr

Respublikamizda bir necha yillardan buyon AQSH davlati bilan hamkorlikda «Tinchlik korpusi» tashkil qilinib, ish olib borilmoqda. Ushbu «Tinchlik korpusi» ko'ngillisi AQSH fuqarosi Jeyms Karlson, 6-son maktab-internatiga yordam sifatida 2004-yilda televizor, video va audio magnitofonlar, ingliz tilidagi kinofilmlar, kassetalar va ingliz tilida kitoblar sovg'a qilgan edi.

Yaratilgan barcha shart-sharoitlar natijasi o'laroq 10-«B» sinf o'quvchisi Ino'mjon Rahimov barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, hozirgi kunda Koreya davlatida tahsil olmoqda. O'ktam Ismoilov, Muhammad Ali Ro'ziboyev esa Yangiariq tumanida o'tkazilgan «Yosh biolog», hamda «Yosh matematik» bellashuvlarida faxrli o'rinnarni egallashdi.

Ta'lim maskanida sport bo'yicha muntazam ravishda turli musobaqalar

voleybol, futbol, tennis hamda shaxmat-shashka to'garaklari o'quvchilar bilan hamisha gavjum. Bir so'z bilan aytganda, kelajagimiz vorislarining puxta bilim olishlari uchun ta'lim maskanida barcha sharoitlar mavjud.



o'tkazilib turiladi. Kurash,

Salimjon IN'OMZODA.

Qiziqarli sahifa

Aziz o'quvchilar, mana turli xangoma-yu qiziq voqealarga guvoh bo'ladigan yangi o'quv yili ham boshlandi. Maktab davri juda ko'p marta kulgularga, kutilmagan voqealarga boy bo'ladi. «Qiziqarli sahifa»mizda mana shunday maqolalar, ko'z ko'rib quloq eshitmagan xangomalar berib boriladi. Siz ham tengdoshlaringiz bilan «yaqinroq» tanishmoqchi bo'lsangiz, o'qing va maktublar yo'llang. Maktublaringizni kutamiz!

YOLG'ON GAPIRMANG, BURNINGIZ O'SIB KETADI!

Yoshligimizda otalarimiz –Agar yolg'on gapirsang, burning o'sib ketadi-ya, deb uqtirishardi. Yillar o'tib, bu gapning shunchaki bizni yolg'on gapirmaslik uchun «qurol» bo'lib qolganini tushunib yetdik. Ammo Los Anjeleslik olim Vendi Makfar yuqoridagi iborada jon borligini tasdiqlab

berdi. Yolg'on gapirgan odamning burni chindan ham o'sarkan.

–Bir qarashda bu sezilmagandek tuyuladi,-deydi olim. –Ammo agar kuniga uch marta aldasangiz, yiliga 1000, o'n yilda esa 10.000 marta, ya'ni 1 santimetr ga o'sarkan. Olim 32 yoshdan 69 yoshgacha bo'lgan 1000 nafar erkak va ayolning ruhiyatini kuzatdi. O'rta yoshli odam yolg'on so'zlaganda 1/10.000 ya'ni 1 santimetr burni uzaygan. O'sish 36 soat ichida davom etarkan.

Odam ikki xil sharoitda yolg'on gapirarkan: majburiy yoki ixtiyoriy. Qaysi birida ko'proq odam ta'sirlanadi? Olim ko'proq sharoit talab qilgandagi yolg'on kuchliroq ta'sir etadi, degan fikrda. Chunki inson bunday vaziyatda ko'proq hayajonlanar ekan.

Shuning uchun aziz bolajonlar, yolg'on gapirmaslikka harakat qiling. Aks holda...


ICHKI DUNYOINGIZNI BILASIZMI?

Insonning tashqi ko'rinishi uning ichki dunyosini ochib beradimi? Bu savol biroz mavhumroq, yengil-yelpi tuyulishi mumkin. Lekin chet ellik olimlar odamning tashqi ko'rinishi uning fe'l-atvoridan darak berishini aniqlashgan. Do'stingiz yoki dugonangizning yuz tuzilishiga qarab, uni ichki dunyosi bilan bema'lol «tanishib chiqishingiz» mumkin. Xullas, o'qib, o'zingiz xulosa chiqaring:

Yuzi dumaloq shaklda, peshonasi keng bo'lgan odamlar biroz jizzakiroq, sal narsaga «lov» etib yonadigan bo'lishadi. Ular istasangiz ham, istamasangiz ham aybingizni shartta yuzingizga aytishadi. Bunday odamlar bilan o'ylashib muomala qilishga to'g'ri keladi. Lekin ular to'g'ri so'zligi, ochiqko'ngilliligi bilan



boshqalardan ajralib turadi. San'atni qadrlashadi. Turli kartinalar, peyzajlarni uylariga osib qo'yishni yoqtiradilar. Shuningdek, ular turli tasodiflarni, yangiliklarni xush ko'rishadi. Hamma bilan dardlashavermaydilar. Gohida yolg'iz qolishni istab qoladilar.



Uchburchak yuzlilar, ya'ni peshonasi keng, iyagi cho'zinchoq odamlar uzoqni o'ylab ish qiladilar. Odamlar bilan tezda muloqotga kirishavermaydilar. Faqat didlariga yoqqan narsalarni xarid qilib, fe'lga mos keladigan inson bilangina gaplashadilar. Ular gapirayotgan gaplarini,

qilayotgan ishlarini ne oqibatlariga olib kelishini obdon o'ylab, keyin biror ishga qo'l urishadi. Bunday odamlar rahbar bo'lishsa, qattiqqo'l, o'z so'zida sobit turadigan bo'lishadi. «Aytilgan so'z, otilgan o'q», degan ibora shunday odamlarga tegishli desak mubolag'a bo'lmaydi.

To'rtburchak yuzli

odamlar o'zlarini juda yaxshi ko'rishadi. Chiroyli kiyinishni, birovlardan ajralib turishni yoqtirishadi. Shuningdek, ular juda qattiqqo'ldirlar. Kutishni yoqtirmaydilar, shuningdek kuttirmaydilar ham. Aytilgan soatga yoki undan oldinroq yetib kelishga harakat qilishadi. Doimo o'zlarini yoqtirganlari tufayli ham birovlariga uncha e'tibor bilan qaramaydilar. Ortiqcha shovqinni, dabdabalarni xush ko'rishmaydi. Kibr-u havo, manmanlikni, maqtanishni yoqtirishadi. O'z istaklari yo'lida hech narsadan qaytmaydilar.

**Xandalar**

Ovqatlanib o'tirgan Odina oyisiga:

–Oyijon, deb og'iz ochgan edi.

–Ovqatlanayotganda gapirilmaydi, ovqatingni ye, keyin gapirasan, - e'tiroz bildirdi oyisi.

Ovqatlanib bo'lgan Odina:

–Endi aytam maylimi?-dedi.

–Aytaqol, - dedi oyisi.

–Dazmolingiz mening ko'ylagim ustida qolib ketibdi, o'chirishni unutib qo'yibsiz-ku...



Zoologiya o'qituvchisi Zokirdan so'radi:

–Qushlarning qanotlari tagida yog' miqdori nima uchun ko'p bo'ladi?

Zokir biroz o'ylanib turdi-da, so'ngra:

–Vaqtida yog'lanmasa qanotlari g'ichirlab qoladi-da,-dedi.

Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi.

San'at insonni tarbiyalaydi. Keyingi paytda o'zbek kinochiligida yangidan-yangi kinofilmlar ko'payayotgani hammani quvontiradi. Lekin ana shu kinolardan yosh tomoshabinlar ijobiy ta'sirlanibgina qolmay, salbiy xulosa chiqarayotgani achinarli hol. Xizmat safari yuzasidan Andijon viloyatiga yo'l oldim. Maktablarda «Tong yulduzi» kunlarini o'tkazdik. Shunda bir o'qituvchi so'z so'radi:

–O'quvchilarimizga kinofilmlar uchun majburiy chipta sotiladi. Har bir o'qituvchi o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini ana shu filmlarga olib boradi. Men ham 5-sinf o'quvchilarimni kinoga olib bordim. «Fotima va Zuhra» filmi ekan. Umuman olib qaraganda kino yaxshi chiqqan, ammo kitobi ta'sirchanroq. O'lmas Umarbekov asarlarini, xususan «Fotima va Zuhra»ni miriqib o'qiganman. Filmni tomosha qilayapman-u kitob bilan solishtirib xayolga cho'mibman. Nomusi toptalgan Fotima o'zini osib qo'ygan sahnada o'quvchilarim «nimaga o'zini osdi?», «o'zi nima bo'ldi?» deya bir-biriga gal bermay chug'urlasha boshlashdi. 5-sinf o'quvchilariga qanday tushuntirishni

KINOLARNING KO'PAYGANI**YAXSHI, AMMO...****Kattalar, e'tibor bering**

yana bir o'qituvchi. Qo'shni maktabda o'qiydigan bir o'smir qiz oyisi bilan gap talashib qolibdi. Keyin xuddi ana shu kinodagidek o'zicha poklanish uchun yuvinib-taranib, oq ko'ylaklarini kiyibdi. Bir parcha qog'ozga xat bitibdi-da, o'zini osib qo'yibdi. Demak, bunday kinofilmlar «yaxshigina» ta'sir qilyapti.

Majlislar zalida o'tiribman-u, qulog'imga boshqa gap kirmayapti. Haqiqatan ham, endigina 10-11 yoshga to'lgan bolalarni kinoga majburan olib borish kimga kerak? Nahotki kino sanoati murg'ak qalblarni zaharlash, ular hayotiga zomin bo'lish evaziga boyisa? Siz nima deysiz, hurmatli kattalar?

Muharrama PIRMATOVA.

bilmay, «anavi yigit qattiq xafa qildi-da», deb qo'ya qoldim.

«Voy, xafa bo'lsa ham o'zini osaverar ekan-da». Bu luqma eng dahshatli xulosadan darak edi. «Katta bo'lsangiz, tushunib olasiz. Bu oddiygina kino-ku. Qo'shiqlarini

tinglab hordiq chiqaring», dedim. Shunday kinolarga o'quvchilarni majburlab olib tushish shartmikin, nima deysiz?

–Sizning gapingiz holva ekan-ku, deb suhbatga aralashdi

O'zbekistonning so'lim maskanlaridan biri qadim Samarqand buyuk olim-u allomalari bilan necha-necha asrlardan buyon dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. Yulduzlar bilan sirlashayotgan naqshinkor minoralar, osmono'par gumbazlarga ko'z tiksangiz, moziyga safar qilgandek bo'lasiz. Viloyatning qay burchagiga bormang, ajdodlarga munosib avlodlarning yayrab bilim olayotganini, o'sib-ulg'ayayotganini ko'rib ko'nglingiz quvonchga to'ladi. Ular bilan suhbatga kirishib, ishlari ga omad tilaysiz.



OMAD SIZGA, ODILJON!

Kattaqo'rg'on shahridagi 17-umumta'lim maktab sport majmuasida bo'lganimizda, tevarak-atrofning saranjom-sarishtaligini ko'rib mamnun bo'ldik. Majmua zamonaviy tipdagi trenajor, boks, tennis, gimnasika va futbol kabi 5 ta zallardan iborat. Ayniqsa, gimnastika zalida shug'ullanadigan sportchilar bizning diqqatimizni tortdi. Ularning harakatlarini uzoq vaqt kuzatib turib, murabbiysini suhbatga tortdik:

-Nega har bir bola bilan alohida-alohida shug'ullanayapsiz?

-Bolalar shug'ullanayotgan bu sport turi «Oyama kiokushikaykan karate-do»dir. Sportning bu turi har bir bola bilan alohida shug'ullanishni talab qiladi. Shogirdlarimizdan Mansur Boboqulov,

Xurshid Shoimardonov O'rta Osiyo bo'yicha o'tkazilgan musobaqada I va II-o'rinni olib kelishdi.

Shu sport turi bo'yicha ikki o'g'lim Akmalbek, Fozilbek ham viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faxrli birinchi o'rin egalari bo'lishdi.

M.Narzullayev, Sh.Jalolov, T.Murodov singari o'quvchilar ham eng oliy sovrinlarni qo'lga kiritishdi. Hozirda o'quvchilarimdan O'zbekiston chempioni bo'lish uchun qizg'in hozirlik ko'rayotgan Abbas Toirov, Bobur Shamsuddinov, Jamshid Haqqulovlar bilan haqli ravishda faxrlanaman.

Qaniydi, bizga homiy tashkilotlar yordam bersa-yu, klubimizning sportchi yigitlari ham O'zbekistonimiz nomini

chet ellarga tanitsa. Chunki ular kelajakda vatanimizning haqiqiy himoyachisi, yurt tayanchi bo'la oladigan, biz ishonadigan er yigitlar bo'lishiga ishonaman.

O'zbekiston chempioni, Samarqand viloyati vitse-o'z kasbini va dildan sevishini ko'rib Har bir inson o'zining mehnati bilan kamol topadi, deganlari shu bo'lsa kerak.

«Oyama kiokushikaykan karate-do» prezidenti Odiljon Qanoatovning shogirdlarini chin havasimiz keldi. halol



Muxbir safardan qaytdi

SAMARQAND OSMONIDA YULDUZLAR PORLOQ



Kattaqo'rg'on shahar Xalq ta'limi bo'limini uslubchisi Nilufar Nuriddinova:

-Bolajonlarimizga bugungi zamon talabi asosida sidqiddan ta'lim-tarbiya berib kelayotgan, maqtasa arzigudek maskanlarimiz bor. Ayniqsa, Nigora Yo'ldosheva rahbarlik qilayotgan 19-bog'cha-maktab, Sharofat Bahriyeva rahbarlik qilayotgan 3-, Feruza Qo'chqorova rahbarlik qilayotgan 11-, Ibadat Azizova rahbarlik qilayotgan 8-maktabgacha tarbiya muassasalarida olib borilayotgan ishlar taxsinga loyiq.

Ibadat Azizova rahbarlik qilayotgan 8-maktabgacha tarbiya muassasamiz ikki binodan tinib-tinchimas mudira

Birgina bu emas, opaning say-i-oilalarning 20 nafar farzandlari uchun ham Aziza Normurodova, Mastura Qosimova, Guli Zulfiya Fayziyeva kabi tarbiyachilarning shirin so'zligidan ularning ota-onalari ham mamnun bo'lmoqdalar. Maskanda barcha fan va texnika, tabiat, ekologiya, musiqa hamda shinam sport zali cho'milish havzasi mavjud.

bo'lganimizda bizni ochiq chehra bilan qarshilagan mudira bolajonligini ko'rib, ular haqidagi Nilufar opaning fikrlariga qolmadi.

miz ostonasiga qadam qo'yayotgan har bir bolajonning o'ziga bor. anglagan tarbiyachigina bolaga yaqin sirdosh, suhbatdosh bo'la oladi. Tuman hokimi Turob O'sarov, shahar hokimi Mamatqulov, tuman Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i



O'QILGAN KITOB - KUTUBXONAGA

G'ulom, Abdulla Qodriy, Asqad Muxtor, Muhammad Yusuf kabi yozuvchi va shoirlarimizning o'lmas asarlari shuning uchun ham kutubxonaga mulkiga aylangan. Buni qarangki, kutubxonaga bisoti har haftada bitta kitob hisobiga boyib borsa, kitobxonlarga yana bir yangi asar bilan tanishish imkonini yaratilarkan. Nima deysiz bolajonlar, bu borada barcha o'quvchilar ishtihonlik tengdoshlaridan o'rak olsa arzir ekan-a?

Ishitihon tumanidagi 17-umumta'lim maktabida qator yillardan buyon «Adabiyot gulshani» to'garagi faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda o'quvchilar rahbarlari Shoira Suvonova boshchiligidagi ijod sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda. Ta'lim maskanida har haftaning dushanba kuni ijodiy kecha o'tkaziladi. Unda har bir sinf bolajonlar o'zlarini tayyorlagan sahna ko'rinishlari, she'r, qo'shiq va raqslari bilan barchani mamnun etishmoqda. Tadbir mehmonlari, ota-onalar, ustozlarning olqishini olayotgan o'quvchilar sevimli adiblarimizning badiiy asarlari asosida o'tkazilgan kechadan so'ng o'z kitoblarini maktab kutubxonasiga sovg'a qilisharkan. Abdulla Qahhor, G'afur

Medallar shodasi

Xalqimiz orasida qadim-qadimdan, chin dildan bildirilgan xayrli tilak albatta ijobat bo'ladi, degan ibratli naql bor. Darhaqiqat shunday. Samarqandlik yosh sportchilarni Qarshi shahrida bo'lib o'tgan «Umid nihollari - 2006» sport musobaqasiga kuzatish marosimida viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Maxmud Boboyorov, «Biz sizlarning mahoratigizga ishonamiz. Albatta g'olib bo'lasiz va ko'ksingizda qator medallar bilan qaytib kelasiz», - degan edi. Xayrli tilak ijobat bo'lib yosh sportchilar ushbu nufuzli musobaqada 10 ta oltin, 10 ta medalni hamda turli qimmatbaho sovg'alarni qo'lga yuzlari yordamida o'z maskanlariga qaytishdi. Qo'lga kiritilgan bu viloyatning Pasdarg'om, tumanlari hamda Samarqand bolajonlari va ularning xizmatlari beqiyos. Timinsiz g'alabalar sari yetaklaydi. Karimova, Zebo Qosimova, Shahnoza Ibodullayeva sportchilarning arzugidek. Ular o'zlarining yuksak shahrida bellashayotgan barcha raqiblarini ortda qoldirishdi. Kelajakda yanada yuksak marralarni ko'zlab viloyatning shahar va qishloqlaridagi barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy sport zallarida, maydonlarida shug'ullanayotgan ming-minglab bolajonlar shubhasiz, ertamiz yulduzlaridir. Samarqand osmonida hamisha yulduzlar charaqlagan. Osmon charog'on ekan, ona zamin shu lardan tinch va farovon. Bu farovonlikni qo'lga saqlab, yanada olg'a siljitishimizga hissa qo'shadigan bolajonlardan ko'nglimiz to'q bo'lib qaytdik. Ular ertangi porloq yulduzlarimizdir.

QASHQIR

Uzoq yaylovlarda turardi qashqir, Atrofga boqdi u ko'p uzoq zimdan. Atrofida esa go'zal, dasht-u qir, Chopib ketar qashqir tog' sari birdan.

Purviqor cho'qqiga intilib borar, Qashqirning ortidan yugurar bo'ri. Qashqir esa birdan orqaga qarar, Bo'ri uyi ekan yaylovning zo'ri.

Bo'ri uyi tomon ketdi yugurib, Qashqir-chi har yoqqa qarardi hamon. Charchadi-yu birdan yotdi, bukilib, Bo'ri qarab qoldi cho'qqilar tomon.

Anvar XOLDOROV, Samarqand viloyati, Poyariq tumani Qizil olma qishlog'i.

QISHLOQ SOG'INCHI

Osmonlarda uchmoqdaman burgut bo'lib, Shamollarga erkin bergan bulut bo'lib. Ko'nglimdagi ko'z yoshlarim to'kilmogda, Armonlarim yuzlari ham shuvut bo'lib.


Eslayapman bolalikning g'amlarini, Chang ko'chada kulib yurgan damlarini. Mana bugun men o'n uchga to'lgan kundir, Ko'rolmayman endi yo'lning changlarini.


Tuproq yo'lda kulib-kulib yurolmayman, Yo'l chetida do'stim kutib turolmayman. Bu yer Toshkent ko'chalari toshdan qattiq, Bu yo'llarda loydan «uycha» qurolmayman.

Mana, bugun o'qiyapman poytaxtimda, Mehri toza odamlar bor har shahdimda. Ammo har kun ko'rolmayman qishlog'imni, Qishloq dardi ufuradi har ahdimda.

Tursunpo'lat EGAMOV, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumani.

Nodira MIRZAYEVA.





Umid yulduzlari

Maktab bag'ri bolajonlar bilan to'lgan kunlarda biz Buxoroga safarga otlangandik. Buxoroda o'quvchi-sportchilarni maktab-internatiga futbol ixtisosligi bo'yicha saralab olish ishlari yakunlangan ekan. Mamlakatimizda 28 ta futbol maktab-internatlari bor bo'lsa, ularga 4-sinfni tugatgan, umumiy boshlang'ich ma'lumotga ega, futbolga iqtidori bo'lgan 10-11 yoshli o'quvchilar qabul qilinadi.

QORAKO'LLIK «MARADONA»

Viloyatda 2003-2005- yillar davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 14 ta bolalar sport majmualari qurilib foydalanishga topshirildi. Bu sog'lomlashtirish maskanlarida sportsevar bolalar mashg'ulotlar bilan bandligi yanada ko'nglimizni ravshan etdi.

2006-yilning manziliy dasturiga ko'ra, yana 1 ta yangi qurilish TIP-5, 1 ta qayta ta'mirlanadigan sport zali va 6 ta maktabga qo'shimcha sport zallari qurish rejalashtirilgan.



Buxoroda 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 353353 nafarni tashkil etarkan. Sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar soni esa 143690 nafardir. Qorako'l tumanidagi «Yangi bozor» Bolalar sport majmuasiga tashrif buyurganimizda u yerda bizni faxriylar o'rtasida sambo bo'yicha katta musobaqa kutib turardi. Musobaqadan so'ng, faxriylar bizga quyidagi hikoyani zavqlanib so'zlab berishdi:

* * *

Iyul oyining boshlarida majmuaga Bolalar sporti jamg'armasining ijro etuvchi direktori Abdulla aka Ochilov keldi. Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh tumanda, jazirama issiqda bir-birlari bilan talashib to'p surayotgan 300 ga yaqin bolalarni ko'rgan rahbar: «Kimda-kim to'pni yerga tushirmasdan ko'p tepa olsa sovg'a o'shaniki», - debdi. Shunda bolalarning orasidan taxminan 100 nafari qo'llarini ko'tarishibdi. Ularning safidan past bo'ylikkina bolani tanlab to'pni uzatibdi. Bolakay to'pni olishi bilanoq, «janglyor» qilishni boshlab yuboribdi. Qolganlar esa sanashni boshlashibdi. Nihoyat, sanoq 110 ga yetganda bola charchaganidan to'pni qo'lga ushlab olibdi. Shu vaqt Abdulla aka bir urinishda 110 ta «janglyor» qilgan bu bolakayni ko'tarib bag'riga bosibdi va hayajon-u hayratlar ila: «Sen bugundan boshlab MARADONAsan», - deb yuboribdi. Shu kuni Qorako'lda 11 metrlik jarima to'pidan gol urishda ham, hujumda to'p surishda ham bolalar o'z mahoratlarini namoyish etib, jamg'armaning sovg'alariga ega bo'lishibdi.

Bunday e'tibordan keyin qishloq bolalarining sportga bo'lgan mehri yanada oshibdi. Hozirgi vaqtda sport bilan shug'ullanish istagida sport majmualariga hatto ota-onalari bilan kelib muntazam shug'ullanuvchilar soni kun sayin oshib bormoqda ekan. Bunga tumandagi 47 ta mahallalar o'rtasidagi turli xil musobaqalarda bahslashayotgan sportchilarni ko'rib amin bo'ldik.

Anvar MURSAKULOV,
XTV huzuridagi Bolalar sportini
rivojlantirish jamg'armasining matbuot kotibi.

SALOMATLIK UCHUN ZARURI



Buxoro olimpiya o'rinbosarlari maxsus sport maktab-internati 10 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayapti. Shu vaqtgacha bu sport maktabidan 55 nafardan ziyod sport ustalari, 3 nafar Xalqaro toifadagi, 286 nafar sport

ustaligiga nomzodlar yetishib chiqqan. Bugungi kunda bu yerda 348 nafar o'quvchi-sportchilar bilim olayaptilar.

60 nafardan ziyod sportsevar o'quvchilar o'z hujjatlarini topshiribdilar.

Imtihon jarayonlarida bo'lajak futbolchilar o'z iqtidorlarini to'liq namoyish eta olibdilar.

Ulardan biri 10 yoshli Sherzodbek Ro'ziyev edi.

—O'g'lingizning futbolchi bo'lishini juda xohlar ekansiz-a,—deya so'radik, onasi Oysha opadan.

—Bolamning futbolga mehri tushganligidan aslo ranjimayman. O'g'lim futbol bilan do'stlashib, vaqtini bekor o'tkazmayapti. Mana o'z kuchi va iqtidori bilan futbol maktabiga qabul qilindi. Nasib etsa, Sherzodbek yurtimizning nufuzli futbol jamoalarida to'p suradi. Uning singlisi ham kelajakda gimnastikachi bo'ladi deb, niyat qilaman. Chunki oilamiz sportchilar oilasidir. Biz har kuni tongda yugurishni odat qilganmiz. Salomatlik uchun eng zarur narsa sport ekan.

Jonajon diyorimiz **Faxr** tobora sportchilar mamlakatiga aylanib bormoqda.

Respublikamizda sportning tennis turi yaxshi rivojlangan. Shu bois ham, 2002-yildan buyon Osiyo tennis federatsiyasining qit'a chempionatlari aynan bizning yurtimizda o'tkazilmoqda. Bu galgi Osiyo chempionatida qit'amizning 20 ga yaqin davlatlaridan kuchli raketka ustalari qatnashdilar. Vakillarimizdan turnirning o'tgan yilgi g'olibi Denis Istolin erkaklarning yakkalik bahsida barcha raqiblarini mag'lub etib, finalga yo'l oldi. Biroq, final bahsida Istolonga yaponiyalik Soyedo Go ustidan g'alaba qozonish nasib etmadi. Erkaklarning juftlik bahslari esa

tom ma'noda o'zbek

tennischilariga omadli

keldi. Hamyurtlari-

mizdan Denis

Istolin va

M u r o d

I n o y a t o v

juftligi bu yil

ham Osiyo

championa-

tida birin-

chilikni qo'lga

kiritdilar.

Ayollar yakkalik

bahslarida tennimiz malikasi

Iroda To'laganova yana o'zining yulduzli g'alabalari qaytayotganligini isbotlab berdi. U finalgacha mardonovor yetib bordi. Finalda Xitoy Taypeyi vakilasi Yung Jan Changa hech qanday imkoniyat qoldirmadi.

Osiyo chempioni bo'lgan Iroda opangiz endi jahonning eng nufuzli turnirlarida ishtirok etadi. Unga Avstraliyaning ochiq chempionati — «Avstralian open» da qatnashish huquqi berildi. Ushbu turnir shu yilning 15-28 yanvar kunlari Avstraliyaning Melbrun shahrida bo'lib o'tadi.

Iroda opangizning izdoshi Oqqul Omonmurodova ham o'zining ko'p sonli muxlislariga ega. Oqqul opangiz ham bu musobaqada ayollarning juftlik bahslarida yarim finalgacha mardonovor «jang» qildi.

2007-yilgi Osiyo chempionati ham poytaxtimizda bo'lib o'tishi rejalashtirildi.

O'ZIMIZNING IRODA



Ma'mura MADRAHIMOVA.

O'ZBEK O'G'LO'N!

Har ishda ilg'or bo'l,
Ochiqdir barcha yo'l.
Ishing o'ng keladi,
Seni el biladi.
Bu yangi zamon,
Seniki, o'g'lon!



Sportda yutuqlar,
Ishonch, ruh qo'ltiqlar.
Kelajak uchun-ku,
To'plagan kuching bu.
Doimo bo'l omon,
Ey, sog'lom o'g'lon!

O'qishga zehning bor,
Kitoblar bo'lmas xor.
Ularni sen «Siz»la,
Ilmni ko'p izla!
Intilib nur tomon,
Bo'l, o'zbek o'g'lon!

O'z eling, otang ham,
Shu Vatan, onang ham,
Bo'larlar madadkor,
Kelajaging bor!
Yur orzu tomon,
Bo'l, o'zbek o'g'lon!

Bahrom TOJIYEV.

MAHALLAMIZ HOMIYSI

Bizning Choshtepa Qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli Sabzavot mahallamiz Toshkent tumanida joylashgan. Bu yerda istiqomat qilayotgan odamlarning barchasi bir-biriga mehribon. Sahovatpesha insonlar hamisha bir-birlariga yordam qo'llarini cho'zishadi. Zokir aka Ubaydullayev va ularning turmush o'rtoqlari Erkinoy opa Ubaydullayevalar haqida ko'pchilik iliq fikrlar bildirishadi. Sababi ular mahallaning quvonch-u tashvishlariga hamisha yelkadoshlar.

Yaqinda mahallamizda joylashgan tibbiyot maskani qaytadan ta'mirlandi. Ushbu xayrli ishga ham Zokir aka Ubaydullayev homiylik qildi. Bir qancha qulayliklarga ega zamonaviy binoning ko'rkamligi ayniqsa, shifokorlarning quvonchiga-quvonch qo'shdi. Shu kuni mahalla ahli Zokir akaning savobli bu ishidan g'oyat minnatdor bo'ldilar. Elga yaxshilik qilish uning duosini olish eng savobli ish ekan. Men ham katta bo'lsam, albatta mahalladoshlarimning olqishini olishga harakat qilaman.

Zulxumor SOBIROVA,

Toshkent Viloyati, Toshkent tumanidagi 25-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

NEVARAMGA

Bu jon ichra aziz jonim,
Quvonchim, qalb butunim,
Nur-quyoshim, nur jahonim,
Tillogina ustunim!

Qutlug' qadam, karomatlim,
Erkaginam jayronim,
Umidlarga tayanchginam,
Piryoyginam polvonim,

Sen Ollohdan kelgan ehson,
Sen urug'im, xirmonim,
Umr, davlat, baxt, hamda shon,
Bergan bo'lsin Sultonim!

Omon bo'lsin aziz joning!
Pirlar bo'lsin qalqoning,
Mirjalolim, o'g'lonim,
Sen kelajak, sen suyanchim,
Tillogina ustunim!



Amanbibi BOLTAYEVA,
Xorazm viloyati,
Xozarasp tumani.

TO'POLONCHI

Sinfoshim Toshmurod,
To'polonchilar shohi.
Qizlar «dod» deydi undan,
Rostakam tentak gohi.

Goh solib qo'yar aytmay,
Qizlarning cho'ntagiga.
Qurbaqa, qush o'ligin,
Tan olmas qilganiga.

Bog'lab qo'yadi sochin,
Aqida va Sevarning.
Shapkasini yashirar,
Tanaffusda Nodirning.

Eh, Toshmurod, quloq sol,
Qachon aqling kiradi.
Yoshlikdan o'qimasang,
Vaqtning bekor ketadiq.

Tengdoshlaring ijodi

Laziz MELIKOV,
326-amaliy san'at
majmuasi, 7-«V» sinf o'quvchisi.

Qoraqalpoq shoirlari bolalarga**EY, TAQDIR!..**

O'tgan har bir lahzani qildim boobro',
Dunyoga baxtiyor boqishni o'ylab.
Bilmam, qay gunohim turar ro'baro',
Deyman qay izmda oqishni o'ylab?..

Dunyoda nima gap – kirmay ichkari,
Guldek ko'nglimga gul taqishni istab,
Deyman shu quyosh ham boqar teskari,
O'zi yongan o'tda yoqishni istab.

Hech kimdan, hech narsa, yo'q, so'ramadim,
Eshitib onamning nasihatlarin.
Necha yil ichga bir mo'ralamadim,
Bilsam-da, qalb qahrin, vajohatini.

Bosh ham ikki yoqdan chiqardi quloq,
Qayrab menga o'ttiz ikki mix tishin.
Balki men yashardim bundan-da uzoq,
Ketsa ko'z ko'rmasga sevmagan kishim.

Baxt ham, baxtsizlik ham hech portlamadi,
Qolgandek kichrayib bahaybat tog'lar.
Kuchim borda dashtlar meni chorlamadi,
Qarovsiz qolayotgan ko'm-ko'k bog'-rog'lar.

Itarsa bag'rimdan, balki boyirdi,
Yerga bog'lab turgan ko'rinmas qo'llar.
Shoshib ketib borayapman, xayr endi,
Tizginim bog'lagan bexato yo'llar.

Yurakni – tiz cho'kkan – avf etolmayman,
Qanotlarim qirqiq, ham qulochsizman.
Anov cho'qqilarni zabt etolmayman,
Ey taqdir, oldingda jim, ilojsizman...

**QORAQALPOQQA**

Qonida, jonida charx urib quyosh,
Sig'may bosh urgandek Amu qirg'oqqa.
Qolar qurib bir kun ko'zlardagi yosh,
Yurti ko'ngil bergan kabi Shiroqqa.

G'arib bandalarning Xudo qayg'usi,
Qolmas o'ralashib xira chiroqqa.
Yolg'onchi dunyoning yong'og'i qursin,
Ketgim kelar uchib yiroq-yiroqqa.

Ko'zdan boshqasiga yetsin deb kuching,
Keldi ko'p mamlakat ham beriroqqa.
«Joningni garovga qo'yib men uchun,
Egilmasin boshing»,-deb- «quyiroqqa».

«Erk» deb yugurganlar qonini to'kmay,
Baxtli kelajakni qo'ymay firoqqa.
Nega men bor jism-u jonimni tikmay,
Bobolarim boshin tikkan bayroqqa?..

Qora ko'zlarimni ko'msalar mayli,
«Erk» deb birlashayotgan yaqin-yiroqqa.
«Bir qultum suvga zor Orol tufayli»,
Dunyo ko'z tikayotgan Qoraqalpoqqa...

Gulchehra RAHIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumani.

VATAN UCHUN

Menmi, deb kim boshin toshga uribdi,
Bitta aqlisizni qo'yib qoshimda.
Mendan ortiq dunyo neni ko'ribdi,
Men ko'rgan shu ellik to'rt g'o'r yoshimda.

To'g'ri, men mas'ulman har bir qadamga,
Yashar qancha millat ich-u tashimda.
Bo'lmang diqqatimni bitta odamga,
Qancha xalq g'avg'osi bitta boshimda!

Men shahrimiz tarixiga qiziqaman. Shuning uchun ham manbalardan shahrimiz tarixiga oid ma'lumotlarni yig'aman. Ularni sizlar ham bilishingiz kerak, deb o'ylayman.


Qarshi shahridan 5-6 km. narida qadimiy va navqiron Yerqo'rg'on shahri yastanib yotadi. Shahar o'z davrida 3 ta devor bilan o'rab olingan. Birinchi devor miloddan avval VIII-VII asrlarga, ikkinchi devor esa miloddan avval IV-III asrga, uchinchi milodiy II asrga to'g'ri keladi. VIII-VII asrda shahar maydoni 40 gektarni tashkil qilgan bo'lib, miloddan avval IV-III asrlarda 150 gektarni tashkil etgan. Shahar milodiy asrda efitaltilar va turk xoqonligi o'rtasida bo'lib o'tgan janglarda vayron etilgan.

Qazuv ishlari natijasida bu yerdan ko'plab topilmalar: sof oltindan ishlangan tipratikan va toshbaqa haykali, po'lat eritish uchun mo'ljallangan o'choqlar, zardushtiyalar ibodatxonasi, hokim tang'asi, turli haykalchalar, sopol buyumlar, tangalar topilgan. Qarshi shahri qadimda juda ko'p nomlar bilan atalgan.

«Yerqo'rg'on», «Novtaq», «Bolo», «Neshibdo», «Zaxokimonron», «Naqshob», «Nasaf», «Qarshi», «Behbudiy»

Qadim o'tgan zamonda emas, hozirgi biz yashab turgan pallada Ismat va Hikmat ismli ikki do'st uchrashib qolishibdi. Ular bekorchilikdan noligan bo'lishibdi. Shu payt Hikmat: -

Do'stim, menda bir taklif bor. Kel, ikkalamiz ham qassobchilik qilamiz. Mol olib, semirtirib, so'yib sotamiz,-debdi. Ismat ham bunga ko'nibdi. Shunday qilib, ikki do'st qassobxonada ochishibdi. Ammo har ikkisining ham tarozisi xato ishlar ekan. Ular har bir xaridorning haqqidan «urib» qolisharkan. Kunlarning birida Hikmat qattiq betob bo'lib, dardiga davo topa olmabdi. Ismat uni ko'rgani kelib



Saboq darsi

BIROVNING HAQQI

ahvoliga achinib ketibdi. Ostonada turgan do'stini ko'rgan Hikmat uni ichkariga chorlabdi va: -Ismat, shuncha yil davomida qassobxonada ishlab, odamlarning haqqiga xiyonat qildik. Mening bir qo'lim, bir oyog'im ishlamay qoldi. O'g'lim noqobil chiqdi. Mana seni olsak, sen nega birovlarining haqqidan ursang ham, bolalaring sening izmingga yuradigan bo'lishgan, oilang tinch, o'zingni ham to'rt muchang sog'... Yoki men qayerdadir xato qildimmi? - deb so'rabdi.

Shunda Ismat: -O'shanda ortgan go'shtlarni nima qilarding? - debdi.

-Bolalarimga yedirardim, sotardim... -javob beribdi Hikmat.

-Men esa yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga tarqatardim, ularning duosini olardim, - debdi Ismat.


Qissadan xissa shuki, birovning haqqiga xiyonat qilgan odam baribir jazosini oladi.

Jobir ISMATULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi
M.Ulug'bek nomli maktab-
internatning 8-sinf o'quvchisi.

Shaharning 2700 yilligiga

(1926-37 yillar) va yillar o'tgach, yana Qarshi deb atala boshlagan.

TURON ZAMIN GAVHARI QARSHI



Yerqo'rg'on - shahar loy va tuproqdan barpo etilgani uchun ushbu nom bilan atalgan.

Novtaka-Yangi shahar, yangi turar joy, degan ma'noni anglatgan.

Navtaq-Navtaka so'zini buzib aytilishi.

Bolo, Nekshibdo, Zaxokimoron, Naqshab so'zlari fors-tojikcha bo'lib, Bolo-tepa, Zaxokimoron-zax, tuproqli qal'a, Naqshab-naqsh suv, degan ma'noni bildiradi. Bu nom bilan atalishining boisi, voha suvi toza va shirin bo'lgan. Qashqa daryosining quyi oqimi ham Naqshab viloyati deb atalgan.

Nasaf - Naqshab so'zini arablar tomonidan buzib aytilishi oqibatida yuzaga kelgan. Shuningdek,

shahrimizda juda ko'p tarixiy yodgorliklar bor. O'dina masjidi, Ko'k gumbaz jome' masjidi (1590-91 y.), Sardoba Xo'ja Abdulazizxon, Ali, Shermuhammad, Sharafboy, Bekmir kabi madrasalar, o'nlab maqbara va ziyoratgohlar shular jumlasidandir. Bir so'z bilan aytganda, shahrimizga kelsangiz, bunday tarixiy obidalarni o'z ko'zingiz bilan ko'rib, boy tariximizdan siz ham voqif bo'lardingiz.

Uyimizga yaqin joyda o'rmon bor. Oyim bizga ana shu o'rmonga bemahalda, yolg'iz bormasligimizni doim uqtiradilar.

Tun. O'rmondagi daraxtlar shuvillayapti. Mayin shabada esgan sari o'sha tomonga borgim kelaverdi. Bir-biridan ulkan va turli daraxtlarni tomosha qilib, ancha ichkariga kirib ketibman. Qorong'i emasmi, allaqayoqdan boyo'g'lining

ROSTGA O'XSHAGAN TUSH



xunuk sayrashi eshitilar, jonivorlarning uvillashi-yu chigirtkalarining chirillashi endi vahima uyg'otdi. Shu payt orqa tarafdin kattakon mahluq men tomon kelayotganini sezib qoldim. Ayiq bo'lsa kerak. Qochish kerak! Shu, qochaman deyman, chopa olmayman. Oyoqlarim og'irligidan ko'tara olmayapman. Ayiq esa yaqinlashib qoldi. Ana menga qo'lini cho'zyapti, bo'ynimga chang soldi. «Oyijo-o-n» deb baqirsam, ovozim ham chiqmayapti. Yana baqirgandim, o'z ovozimdan uyg'onib ketdim. «Hayriyat, tushim ekan»,- dedim.

Iroda YUNUSJONOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz shahri, Yangi Obod ko'chasi, 1-uy.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq Ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» Yo'Il markaziy

kengashi raisi vazifasini

bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati, Xalq Ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruz JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq Ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV

(tadbirkor olim).

Gazeta O'zbekiston

Matbuot va axborot

agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda

ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib

sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba

kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17626

Buyurtma N: J 2821

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Musahhih:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilibiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10